


**XI МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
ПО КОМПЬЮТЕРНОЙ ОБРАБОТКЕ  
ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ**

# **TurkLang 2023**

Узбекистан,  
Бухара,  
20-22 октября 2023 года

**TurkLang · 2023**

Министерство науки и образования, науки и инноваций Республики Узбекистан  
Бухарский государственный университет  
Академия наук Республики Татарстан  
Гражданский национальный университет имени А.Н.Гумилёва Министерства образования и науки Республики Казахстан  
Стамбульский технический университет



УДК 004.8+81'32

ББК 81.1

**Организаторы:**

**Министерство высшего образования, науки  
и инноваций Республики Узбекистан**

**Бухарский государственный университет**

**Академия наук Республики Татарстан**  
Институт прикладной семиотики

**Евразийский национальный университет имени Л. Н. Гумилёва**

Министерства образования и науки Республики Казахстан  
НИИ «Искусственный интеллект»

**Стамбульский технический университет**

**Научные редакторы:**

Д.филол.н. Тоирова Г. И.  
Д.филол.н. Абдурахмонова Н. З.  
К.пед.н. Юлдашева Д. Н.,  
К.т.н. Гатиатуллин А. Р.

**Одннадцатая Международная конференция по компьютерной обработке тюрksких языков «TurkLang 2023», – Труды конференции. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2023. – 1030 с.**

ISBN 978-5-9690-1197-7

Сборник содержит материалы Одннадцатой Международной конференции по компьютерной обработке тюрksких языков «TurkLang-2023» (Бухара, Узбекистан, 20–22 октября 2023 г.)

Для научных работников, преподавателей, аспирантов и студентов, специализирующихся в области компьютерной лингвистики и ее приложений.

УДК 004.8+81'32

ББК 81.1

ISBN 978-5-9690-1197-7

© Коллектив авторов, 2023

**PERIFRAZALARING ETNO-HUDUDIY, MADANIY  
XUSUSIYATLARI***Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi**Buxoro davlat universiteti,**Buxoro, O'zbekiston**u.s.ahmadova@buxdu.uz**uaxmadova477@gmail.com**<https://orcid.org/0000-0002-6395-9812>*

Maqolada etno-hududiy, madaniy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan perifrastik birliklar keltirilib tahlil qilingan. Til, nutq, madaniyat, millat, an’ana va qadriyat tushunchalari ayni bir nuqtada birlashishi, biri ikkinchisini taqozo etishi dalillangan. Perifrazalar nutqning ta’sir ko‘rsatuvchi, eshitimlilik darajasini oshiruvchi uslubiy vositalardan biri ekanligi asoslanilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvistika, perifraza, hunarmandchilik, miliy, madaniy, qadriyat, tafakkur, an’ana, hunar, nutq, mazmun, mohiyat, xalq, ijtimoiy.

Til – ijtimoiy hodisa. U ijtimoiy rivojlanish jarayonida paydo bo‘ladi. Kishilarning, har bir jamiyat a’zosining faoliyatini muvofiqlashtirish kabi muhim vazifani bajaradi. Til ayni vaqtda ongning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Til qobig‘idan tashqarida ong mavjud bo‘lmaydi. O‘z fizik tabiatiga ko‘ra o‘zi bildiradigan narsaga nisbatan shartli bo‘lgan til belgisi, shunday bo‘lishiga qaramay, real voqelevkni bilish jarayoni bilan bog‘liq. Demak, til jamg‘arilgan bilimlarni qayd etish va saqlash hamda ularni avloddan avlodga yetkazish vositasidir. Til insonlar faoliyatida fikrlash va o‘zaro muomala vositasini sanaladi. Til muomala vositasiga aylanishi bilan imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Endi u nutq, nutqiy jarayon quroliga aylanadi. Bu orqali tilning ijtimoiylik imkoniyati ham kengayib boradi. Nutqiy faoliyatda til ko‘magida suhabatdosh yoki tinglovchiga ma’lum axborot ham yetka-ziladi. Ana shu suhabatning eshitimli va yoqimli bo‘lishini ta’minlovchi unsurlardan biri perifrazalardir. Til mulki sanalgan perifrazalarni til va nutq bosqichida tahlilishi ham til va jamiyat munosbalatlarining yana bir karra aloqadorligini ko‘rsatadi.

Perifraza narsa-hodisani, obyektni tavsiflash uchun qo‘llaniladigan stilistik figura sanaladi. Mavjud tavsiflash har qanday yorqin va ahamiyatli belgi yoki sifatni ajratish asosida yuzaga keladi. Perifrazalar hodisani shunday yorqin ifodalaydiki, jamiyat ahli kundalik hayotda undan keng foydalanishi oqibatida barqarorlik kasb etadi. Jumladan, Imom Buxoriy deganda *hadis ilmining sultonii*, mutafakkir Alisher

Navoiy deganda *eski o'zbek adabiy tilining asoschisi*, Margarit Tetcher haqida gap ketganda, shubhasiz, *temir ayol* perifrastik baholashlar qo'llaniladi.

Perifrazalar ma'lum tushunchani ifodalashdan tashqari unga qo'shimcha (ijobiy yoki neytral, ba'zan salbiy) ma'no ham yuklaydi, bu ularda pragmasema mavjudligini isbotlaydi. Masalan, yomg'ir so'zining o'rniga *osmonning ko'z yoshlari* tasviriy ifodasi qo'llangan-da fikr ancha ta'sirchan, emotsiyonal bo'ladi. Perifrazalar badiiy asarlar-da, ommaviy axborot vositalari sarlavhalarida yoki maqolalarda juda keng tarqalgan lingvistik hodisadir. Darhaqiqat, yorqin tavsiflashlar kitobxonni o'ziga jalb qilmay qo'ymaydi. Ayrim perifrazalar o'qu-vcihilar orasida keng tarqalganligidan kim yoxud nima haqida so'z borayotganligi aniq idrok qilinadi va bu, ko'pincha, muayyan perifrazani qo'llayotgan millat, elat yoki hudud bilan ham bog'liq bo'ladi.

Masalan, disfemistik xarakterdagи ба'zi ruscha perifrazalar o'zbek nutqida mutlaqo uchramaydi: *домашний убийца* (кухонный нож), *играть в гробу* (умирать), *книжный характер* (равнодушный), *коло́бель законности* (законы) kabi.

Yoki o'zbek tilidagi davlat ustunlari (rahbarlar), raqs malikasi (Mukarrama Turg'unboyeva), osmon tirnog'i (oy), baraka urug'i (chigit), kumush tola (ipak), oq oltin ijodkorlari (paxtakorlar), farovon hayot bunyodkori (fermer) kabi perifrazalar rus yoki ingлиз tillarida uchramaydi va hokazo.

Aytish joizki, oltin boshoq (bug'doy), zangori ekran (televizor), zangori olov (gaz), po'lat qush (samolyot), mo'yqalam sohiblari (ras-somlar), bahor elchisi (qaldirg'och), o'rmon malikasi (archa), qanotli do'starimiz (qushlar), salomatlik posbonlari (shifokorlar), charm qo'lqop ustasi (bokschi), hayvonlar podshosi (sher) kabi yuzlab perifrazalar o'zbek va rus tillarida bir xilda ishlataladigan universal tasviriy ifodalardir.

O'zbek tili perifrazalarining o'zi ham hududiy jihatdan farqlanishi ni kuzatamiz. Masalan:

*El Oqpodsho qarorgohilab kelgunichayin olaqaroq tun bo'ladi* [1,6].

- Taqsir... Siz to'pga tutajak dargoh masjid...
- Masjid bo'lsa nima bo'pti?
- *Masjid Xudoi taolo dargohidur, taqsir. Xudoi taolo dargohidur* [1,10]. Direktorimiz qop-qora chigitni ko'z-ko'z etadi.
- Paxta aslida mana bunday ichi qora bo'ladi! – deydi. – Paxta – ichi qora mato! Paxta odamzotni indamay boplaydi! U dunyo-yu,

*bu dunyo o‘ngarilmas qiladi! Byuroda o‘rtoq Mavlonov ana shunday dedi!* [1, 33].

*Direktorimiz u yerda-bu yerda yotmishe bolalarga baqiradi:*

*– Bu nima yotish?! – deydi. – Paxta fronti enangni uyimi?! Men hozir byurodan keldim!*

*Senlarni deb o‘rtoq Mavlonovdan eshitmaganlarimni eshitib keldim!* [1, 35].

*Ayolimiz boshi uzra gumbaz tugun qo‘ndirdi. Ayolimiz bag‘ri aro qo‘shqo ‘llab bola quchdi. Ayolimiz qishloq yo‘l oldi* [1, 70].

*Olam tandir taft-tandir taft bo‘ldi. Sonsiz qajinlarim-da dosh berolmadi. Saraton telpagim-da dosh berolmadi. Men lablarim yorilib-lablarim yorilib dalaладim* [1, 94].

Surxondaryo shevasi barq urib turgan mazkur asarda Tog‘ay Murod o‘ziga xos hududiy perifrazalardan foydalanganligini kuzatamiz. Jumladan, *Xudoi taolo dargohi – masjid; ichi qora mato – paxta; gumbaz tugun – bo‘xcha; tandir taft – jazirama (issiq)*. Keltirgan misollarimizdan bittasi – paxta fronti (dala) barcha hududlarda bir xilda ishlataladi.

*– Ebi, ebi, – dedi Rahim. – burodaring ahvolini gapur-da axi. Bar padari uyquki, peshinga chikin bo‘lsa; ko‘chaga bo‘lib yotkan to‘palangni go‘shingga ilasanmi?* [2, 137].

*– Pul topiladi? – deb kuldil Rahim. – Bu bepadar boyvachchangizni qara, Sharifboy.*

*– Voy-voy, – dedi Rahim, – nazari baland bo‘yoqchining o‘g‘lidan xafa bo‘llem* [2, 137].

*– Qani, ining bilan ko‘rishdigmi, Qobel?*

*– Ko‘rishdim.*

*– Odami nag‘z bo‘lg‘an?*

*– Odami nag‘z* [2, 137].

*– Endi tutmakchilar...*

*– Endi tutmakchilar? – deb zaharxanda qildi Rahim. – Dardi xarinni tutadi* [2, 139].

Mazkur misollarda ikki tilda so‘zlashuvchi hudud vakillari – buxoroliklarning nutqida uchrovchi bepadar boyvachcha, nazari baland bo‘yoqchi, dardi xarina kabi perifrazalar ham aynan hududiy xarakterdadir.

Til o‘zining serjilo, nozik semasi bilan inson qalbini zabit etadi yoki butkul vayron qiladi. Bilamizki, o‘zbek tili lug‘at boyligi, qo‘llanish doirasining kengligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu imkoniyatlarni voqelantiruvchi til vositalaridan biri – perifrazalar bugungi

kunda jamiyatning barcha sotsial qatlamlari doirasida so‘zlashuvchi shaxslar nutqini uslubiy jihatdan farqlashiga guvoh bo‘lamiz. Asosan, badiiy uslubning komponenti hisoblangan perifrazalar bugungi davr tababi yuzasidan ham publitsistik, ham ilmiy, ham so‘zlashuv uslublarining badiiy estetik effekt beruvchi, ruhiyatga ta’sir qiluvchi asosiy vostasiga aylandi. Perifrazalar barcha til egalari nutqida keng qo‘llaniladi. Har bir qatlam o‘z nutqida perifrazalardan ma’lum darajada foydalanadi. Chunki u nutqimizni bezovchi, o‘rinsiz qaytariqlarning oldini oluvchi, kishi ruhiyati va kayfiyatini ko‘taruvchi, nutq obyektining dolzarbligini ko‘rsatuvchi tasviriy ifodadir. Perifraza yoki tasviriy ifodalarning hosil bo‘lishi predmet, voqe va hodisalarni o‘z nomi bilan emas, balki uning xarakterli belgi- xususiyatlarini tasviriy usul orqali ifodalash jarayoni hisoblanar ekan, yuqoridaq dalillar fikrimizga oydinlik kiritadi. Badiiy asar qiyamatini oshiruvchi perifrazalar, odatda, ham tasviriy vosita, ham biror so‘zni almashtiruvchi tasviriy element hamda ekspressivlik va emotsiyonallikni kuchaytiruvchi ko‘chim turi sifatida qo‘llaniladi. Yozuvchilar o‘z asarlarida ma’lum bir predmet yoki inson faoliyati bilan bog‘liq hodisani yangicha nomlash orqali fikrni aniq tasvirlashga erishadi. Bunda perifrastik ma’no nomlangan so‘zning ma’nosiga qaraganda ancha ta’sirchan va ifodaviyligi bilan ajralib turadi. Masalan, «*Tun qushi ohista uchib o’tdi, uning qizg’ish ko‘zları ko‘rindi*» (Bodom qishda gulladi, 130-b.) yoki «*Yana to‘rt oyoqli bola... Bola! Choljon, haqiqatan ham enam bola bo‘lib qolibdi-ku?*» (Og‘ir tosh ko‘chsa, 121-b.). Keltirilgan matnlarda **tun qushi, to‘rt oyoqli bola** perifrastik qo‘shilmalari boyqush, yoshi anchaga borib qolgan kampir ma’nosida ishlatilgan bo‘lib, yozuvchining perifrazadan foydalanish mahoratini anglab olishimizga imkoniyat yaratadi. Badiiy adabiyot tilida har bir badiiy-tasviriy vosita ma’lum bir voqe va hodisaga ekspressiv tus berish uchun ham ishlatiladi.

Toshkent, Farg‘ona, Jizzax hududlarida yashovchilar nutqida *buloq suvidek tiniq* (zilol), *oftobni to‘sgan tog‘* (bahodir), *kun ko‘zgusi* (tong), *kumush moyandoz* (qor), *saxovat momosi* (yomg‘ir), *bag‘ri otash mo‘jiza* (tandir); Xorazmda yashovchi aholi nutqida *oq buloq* (sigir), *qora tayloq* (sho‘x bola), *uzumning suvi* (chiroylì), *yigit do‘siti* (ot) kabi hududiy perifrazalar qo‘llaniladi.

Til jamiyat ko‘zgusi, millat g‘ururidir. Tilsiz jamiyat mavjud emas. Tildagi barcha boyliklar nutqda voqelanadi, nutq orqali yetkaziladi. Jamiatning bir muhim bo‘g‘ini sanalgan hunarmandlar tili ham o‘zbek tili leksikasining asosiy bir qismi sanalib, uni boyituvchi manba sirasiga kiradi. Hunarmandchilik sohasida o‘zbek xalqining

milliy-madaniy xususiyatlari, o‘ziga xos nomoyon bo‘ladi. Tilning bunyodkorlik qudratidan jamiyatdagi har bir shaxs o‘z shaxsi, salohiyati va qobiliyatidan kelib chiqqan holda foydalanadi. Shu jumladan, hunarmandchilik sohasida ham perifrazalarning paydo bo‘lishi hamda qo‘llanishi ham inson tafakkuriga borib taqaladi. Bilamizki, har bir mamlakatning milliyligi, an’ana va urf-odatlari uning ya’ni xalqning hunarmandchilik sohasida ham o‘z aksini topadi. Masalan:

#### **O‘zbekiston kashtachilagini noyob turi – zardo‘zlik**

«Qadimda ham, hozir ham zardo‘zlik bilan shug‘ullanadigan hunarmandlarni «zardo‘z» deb atashadi. *O‘zbekiston kashtachilagini noyob turi zardo‘zlik* san‘atisiz to‘la tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu hunarmandchilik turi o‘tgan asrning o‘rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan» [3].;

#### **«Otashin kulolchilik» – kulolchilik**

Shahrisabz kulolchilik maktabi ustalari quyosh va olov rangdan samarali foydalanadi. Shu bois Yevropada bu uslubga «Otashin kulolchilik» deya ta’rif berilgan, deb yozadi O‘zA. [4].;

#### **Hunarmandlar yurti – Shahrixon**

*Shahrixon azaldan hunarmandlar yurti sifatida dovrug‘ taratgan. Ayniqsa, tumanda pichoqchilik, do‘ppido‘zlik, beshiksozlik, temirchilik, tikuvchilik, milliy choponlar tayyorlash, kosibchilik, yog‘ochdan turli buyumlar yasash kabi hunar turlari juda rivojlangan. Shahrixonlik hunarmandlar mahsulotlariga xorijda ham qiziqish katta* [5].;

#### **Tadbirkor va hunarmandlar yurti – Buxoro**

«Buxoro azal-azaldan tadbirkor va hunarmandlar yurti bo‘lib shuhrat qozongan. Bu salohiyatni ishga solish uchun aholiga dastak bo‘ladigan sharoitlar yaratib, kasbga o‘rgatsak va ozgina ko‘mak ber-sak, bemalol 90 ming aholining bandligini ta’minlasa bo‘ladi», deydi Shavkat Mirziyoyev [6].;

#### **Kulollar yurti – Rishton**

«Ayni kunlarda Farg‘ona vodiysining eng qadimgi maskanlardan biri, kulollar yurti deya e’tirof etiladigan Rishtonda O‘zbekistonda yagona bo‘lgan kulolchilik majmuasida so‘nggi pardozlash ishlari ketmoqda. Majmua usta kulollar uchun barcha shart-sharoitlarga ega ustaxona va turarjoylar bo‘lib qolmay, chet ellik sayyoohlarning ham sevimli joyiga aylanishi kutilmoqda» [7].

Hududlar doirasida ham hunarmandchilik sohasi farqlanishi, kasbkoriga, turmush tarziga qarab maskan nomlari perifrazalangan- ligini kuzatish mumkin.

Inson o‘zi mansub bo‘lgan millati so‘zlaydigan til hamda milliy-madaniy mentallik va voqelikni individual idrok etish usuli bo‘lgan o‘z tilining egasi ekanligi, til va nutqda insonning ichki dunyosi, aqliy saviyasi aks etishi, lisoniy shaxs sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin.

#### ADABIYOTLAR:

1. Мурод Т. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 168 б.
2. Қодирий А. Ўткан кунлар. Мехробдан чаён. Рўмонлар. – Тошкент:Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 656 б.
3. <https://bozurgoni.y.ulkansayt.uz/zardozlik-sanati>
4. <https://bozurgoni.y.ulkansayt.uz/news/ganjkorli-va-kulolchilik-sanati.html>;
5. ([https://uza.uz/ru/posts/hunarmandlar-markazi-foydalanishga-topshirildi\\_277862?q=%2Fposts%2Fhunarmandlar -markazi- foydalanishga-topshirildi\\_277862](https://uza.uz/ru/posts/hunarmandlar-markazi-foydalanishga-topshirildi_277862?q=%2Fposts%2Fhunarmandlar -markazi- foydalanishga-topshirildi_277862)).
6. DY Ўсупова. Poetess Khalim Khudoyberdieva and his skill in use of the word. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021. – Pag. 238–241. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44644284>
7. ([https://qalampir.uz/uz/news/280-mingta-yangi-ish-urni-makhsus-turizm-dasturi-mirziyev-bukhoroni\\_ng-keyingi-5-yili-%D2%B3ak-ida-47610](https://qalampir.uz/uz/news/280-mingta-yangi-ish-urni-makhsus-turizm-dasturi-mirziyev-bukhoroni_ng-keyingi-5-yili-%D2%B3ak-ida-47610)).
8. (<https://uzreport.news/society/ozbekiston-dagi-yagona-kulolchilik-majmuasi-faoliyatini-boshlashga-tayyorgarlik-korilmoqda>).

---

**ФИЛОЛОГИЯ**

ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ И КОММУНИКАЦИЯ . . . . .	696
ЛЕКСИКА ОРХОНСКИХ ПАМЯТНИКОВ И ЕЁ ОТРАЖЕНИЕ В КАРА- КАЛПАКСКОМ ЭПОСЕ «ҚЫРҚ ҚЫЗ» . . . . .	705
ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА УЧЕБНОГО ДИСКУРСА И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА . . . . .	711
МЕСТО ЛИНГВИСКОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ, РЕПРЕЗЕНТИРУЮ- ЩИХ УЗБЕКСКИЙ МЕНТАЛИТЕТ, В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ ..	718
КОММЕНТАРИИ К ЖАНРАМ, СВЯЗАННЫМ СО СКАЗКАМИ . . . . .	725
ЗНАЧЕНИЕ ПАМЯТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПОРТРЕТЕ . . . . .	730
ЭТНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕ- РИФРАСОВ . . . . .	734
ДЕТСКИЕ ПЕСНИ, СОЗДАННЫЕ НА МОТИВЫ НАРОДНЫХ ПЕСЕН..	741
ВЫРАЖЕНИЕ СЛОВ В СЛОВАРЯХ С НАРЕЧНЫМИ -ОНА АФФИК- САМИ . . . . .	745
ИЗУЧЕНИЕ АРАБСКИХ СОГЛАСНЫХ ГРУППАМИ . . . . .	750
ОКАНЬЕ В СИСТЕМЕ ГЛАСНЫХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА . . . . .	756
ПЕРЕЁНИМЫ – ОДИН ВИД ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ . . . . .	761
СЕМАНТИКА ОБРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МЫШЛЕННЫЕ ДНИ» АБДУЛЛЫ КАДИРИ . . . . .	765
ГЕНДЕРНОЕ НЕРАВЕНСТВО И НАСИЛИЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОРЕЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ . . . . .	771
СОСТАВ УЗБЕКСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ . . . . .	782
TALMEHNING ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDAGI BADIY VAZIFALARI . . . . .	787
SOME THOUGHTS ON TEACHING VISUAL EXPRESSIVENESS OF THE UZBEK LANGUAGE IN RUSSIAN-SPEAKING GROUP . . . . .	791
REALIYALAR MILLIY MADANIYATNI ANGLATUVCHI BIRLIK SIFATIDA . . . . .	797
INTONEMES ARE REPRESENTATIVES OF THE INTERNAL STATE OF THE COMMUNICANT . . . . .	802
THE IMPORTANCE OF PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF LANGUAGE TASKS IN INTERNATIONAL COMMUNICATION . . . . .	809
ХУДОЖЕСТВЕННО-КОМПОЗИЦИОННЫЕ ЗАДАЧИ ЭПИСТОЛАРНОЙ ПУБЛИСТИКИ И ЛЕТРИСТА В ДЕТСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ . . . . .	816
LINGUISTIC CULTURE UZBEK CULTURE . . . . .	822